TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Tashmetova Gulnoza Sadriddinovna – Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi katta o‘qituvchisi

Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘qituvchilar va o‘quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o‘qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari - pedagog-o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etishga, ta’lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta’lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishga, ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o‘zlashtirilishi va ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishining kafolati bo‘la olishga o‘rgatishdan iborat.

Modellashtirilgan dars real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan modelini auditoriyada yaratish va ularda o‘quvchi - talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta’lim olinishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmuidir.

Hamkorlikda o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidir. O‘rganishning tadqiqot-izlanish modeli o‘quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmui hisoblanadi.

O‘quvchiga markazlashgan o‘quv jarayonining maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

Ta’lim olishning hamkorlikda o‘rganish modeli o‘quvchilarning guruhlarida mustaqil ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidan iborat. Hamkorlikda o‘rganish - ***ta’lim beruvchi-ta’lim oluvchi”*** dialogidan voz kechishni va - ***ta’lim beruvchi - guruh-ta’lim oluvchi”*** ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o‘rganish guruh a’zolari va guruhlar o‘rtasida ta’lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan

muloqotda bo‘lish, hamkorlikda ishlash, o‘zaro bog‘liq munosabatlarda mas’uliyatini sezish kabi ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi.

Modellashtirilgan dars real hayotdagi voqea hodisalarni o‘yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishga qaratilgan yo‘l - yo‘riq va usullardan iborat modeldir. Modelashlashtirilgan dars-ta’lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilish asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

O‘yinni real hayot bilan solishtirib, ular o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatish ham dars samaradorlogini oshiradi. O‘yin ijtimoiy tajribani to‘plash va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minlash orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta’lim olishning tadqiqot-izlanish shakli talabalarni izlanishga, yangiliklarga undovchi jarayonlarni hosil bo‘lishga yordam beradi. Tadqiqot o‘quvchilarga inson xatti-harakatiga nisbatan savollar qo‘yishni o‘rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko‘maklashadi. Tadqiqot o‘quvchilarda savol qo‘yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashda va berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish davomida o‘quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob’ektiv yondashuvga o‘rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O‘quvchilar o‘zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborotlar va mantiqlarni qo‘llashni o‘rganadilar. Ta’lim olishning tadqiqot-izlanish turi oliy darajada fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot modeli bo‘yicha tashkil etilgan dars bosqichlari darsda o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadigan muammo yoki savol qo‘yiladi. O‘quvchilarga shu masalini yechish haqida gipoteza taklif qilinishi mumkin yoki o‘quvchilarning o‘zlari gipotezalarni ilgari surishadi. O‘quvchilar o‘zlari shu muammo haqida kerakli ma’lumotlarni topshiradi. Turli adabiyotlarni o‘qib, jadval, grafik, xaritalarni o‘rganib, o‘z tadqiqotlarini amalga oshiradi. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni yechish haqida xulosa qilishadi. O‘quvchilar ilgari surgan gipotezalarni tekshinshadilar yoki yangi gipotezani shakllantiradilar.

O‘quv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq holda, o‘qituvchilar tomonidan ulardan foydalanish samaradorligini baholash zarurati tug‘iladi. Ushbu

metodika qiyinchiliklarni aniqlash uchun asos yaratadi, baholashning muhimligi u yuz berayotgan o‘zgarishlarni monitoring qilish, tizimning hamda uning tarkibiy qismlarining kuchli va zaif tomonlarini imkon qadar ilk bosqichda aniqlash uchun hamda ushbu tizimning samarali (samarasiz) amal qilishini, sabablari bilan birga, tavsiflash uchun xizmat qiladigan vosita ekanligidan kelib chiqadi. Baholashdan maqsad o‘tgan faoliyatnigina emas, balki joriy faoliyatni ham baholash, shuningdek, istiqbol uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. O‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va usullarini bilish darajasi.
2. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim s ifatini oshirishi.

Xulosa: Pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta’lim manzarasini o‘zgartirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lib, shaxsiy o‘rganish, hamkorlik va innovatsiyalar uchun yangi yo‘llarni taklif etadi. Ushbu texnologiyalarning samaradorligini doimiy ravishda takomillashtirish va baholash orqali o‘qituvchilar talabalar uchun qiziqarli, inklyuziv va ta’sirchan o‘quv tajribalarini yaratish uchun o‘zlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.F.Sharopova “Ta’lim texnologiyalari” Toshkent-2019. 14-bet.
2. R.J.Ishmuxamedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. Toshkent-2004.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro‘ziev Zamonaviy ta’lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013y., 200 b.